

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/31.03.2023.T.66.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXIMOVA GULMIRA XAMIDULLAEVNA

**MAHALLIY SOYA DUKKAGIDAN OLINGAN SUTNI QO'LLAB SUTLI
MARGARIN RETSEPTURASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash
hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Raximova Gulmira Xamidullaevna Mahalliy soya dukkagidan olingan sutni qo'llab sutli margarin retsepturasini ishlab chiqish.....	3
Рахимова Гулмира Хамидуллаевна Разработка рецептуры молочного маргарина с использованием местного соевого молока.....	21
Raximova Gulmira Xamidullaevna Development of a milky margarine recipe using local soybean milk.....	39
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	42

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/31.03.2023.T.66.05 RAQAMLI ILMY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXIMOVA GULMIRA XAMIDULLAEVNA

**MAHALLIY SOYA DUKKAGIDAN OLINGAN SUTNI QO'LLAB SUTLI
MARGARIN RETSEPTURASINI ISHLAB CHIQUISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash
hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2796 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ro'ziboev Akbarali Tursunbaevich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Sagdullayeva Dilafruz Saidakbarovna
texnika fanlari doktori, professor

Abduraximov Axror Anvarovich
texnika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:


Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muxandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/31.03.2023.T.66.05 raqamli Ilmiy kengash «___» ___ 2024 yil soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: nei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 3- bino, 2-qavat, Ilmiy kengash xonasi, 313- xona).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ tarqatildi.

(2024 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ushbu sohaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunda oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini rivojlantirish, yangi turdagi mahsulotlar assortimentini kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarishning yanada samarali usullarini qo'llash, energiya va resurs tejankor texnologiyalarni yaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davrlarlarda ham aholi sonining oshib borishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Shu sababli noan'anaviy xomashyolarni chuqur qayta ishlash orqali yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan o'simlik sutlarini ishlab chiqarish bo'yicha keng ko'lamlil izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa soya sutini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, ularni hayvon mahsulotlari o'rnini bosuvchi mahsulotlar, xususan, sigir suti o'rnida qo'llab sutli margarin ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini yaratsih muhim ilmiy-ahamiyatga ega.

Jahonda sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, yangi turdagi texnologiyalar asosida mahsulotlar yaratish bo'yicha keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Margarinning oziqaviy qiymatini yaxshilash, uning retsepturasini takomillashtirish, margarin emulsiyasini unga sovuqlik ishlovi berish texnologiyalarini mukammallashtirish, soya dukkagidan sut olish va uni oziq-ovqat mahsulotlariga kiritish texnologiyalarini qo'llashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid qiluvchi omillarning olidini olish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash salohiyatini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza, sifat ko'rsatkichi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish...»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, noan'anaviy xom ashyolar asosida iqtisodiy samaradorligi yuqori, sifati yaxshilangan yog'li emulsiya mahsulotlarining retseptlarini ishlab chiqarish, organoleptik ko'rsatkichlari yaxshilangan margarin ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-sonli «Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020 yil 9 sentyabrdagi PQ-4821-sonli «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni

2019 yil 23 oktyabrdagi PQ-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4118-sonli «Yog'-moy tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to'g'risida»gi farmon va qarorlari hamda, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jalik, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Margarin retseptini shakllantirish, margarin emulsiyasini olish, emulsiyaga ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish, soya dukkagidan olingan sutni oziq-ovqat mahsulotlarida qo'llashni tadqiq qilish bo'yicha bir qator olimlar, jumladan: M. Rahman, W.J. Wolf, D.J. McClements, V.F. Turov, I.A. Korbanova, S.V. Verxoturov, Sonia Morya, B.N. Tyutyunnikov, A.G. Sergeev, A.I. Glushenkova, A.P. Nechaev, Yu.K. Kadirov, S.A. Abduraximov, I.B. Isabaev, A.T. Ro'ziboev, Q.P. Serkaev, Q.O. Dodaev, D.P. Raximov, S.F.Xodjaev va boshqalar ilmiy-amaliy faoliyatlar olib borishgan.

Shu bilan birga, soya dukkagidan sut olish jarayonida yo'qotishlarni kamaytirish, sutning sifatini yaxshilash, iqtisodiy samaradorlikka ega energiya tejankor texnologiyalarni yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Margarin mahsulotlarining tannarxini kamaytirish, uning xususiyatlarini yaxshilash, retseptlarni shakllantirishda noan'anaviy xomashyolardan keng foydalanish va mahsulot assortimentlarini kengaytirish bo'yicha izlanishlar olib borish muhim sanaladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq hamda Toshkent kimyo-texnologiya institutining №AM-FZ-201908159 «Mahalliy xomashyolar asosida funktsional qo'shimchalar bilan boyitilgan parhezli margarin olish texnologiyasini ishlab chiqish» (2020-2022 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy soya dukkagidan sut olish texnologiyasini takomillashtirish va olingan soya suti asosida sutli margarinlar retseptini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

noan'anaviy manbalar yordamida mahalliy soya dukkagidan sut olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish;

mahalliy soya dukkagidan olingan sutning tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash;

soya suti asosida sutli margarin retsepturasini shakllantirish, soya sutini margarin emulsiyasining turg'unligi, fizik-kimyoviy va organoleptik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish;

mahalliy soya dukkagidan olingan sutni qo'llab sutli margarin olish texnologiyasining maqbul sharoitlarini tanlash;

soya sutini qo'shib retsepturasi boyitilgan sutli margarinlarni saqlanish muddati va sifat o'zgarishlarini aniqlash;

sutli margarin retsepturasini mahalliy soya dukkagidan olingan sut bilan boyitish texnologiyasini ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti mahalliy soya dukkagidan olingan sut (SS), dezodoratsiyalangan pereeterifikatsiyalangan yog', sut yog'i o'rinbosari, emulgatorlar va boshqa qo'shimchalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti mahalliy soya dukkagidan olingan sut qo'shilgan sutli margarin olishning texnologik jarayonlarini takomillashtirish va ularning olib borish qonuniyatlarini tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida xom ashyo va tayyor mahsulot xossalari aniqlashning standart va maxsus organoleptik, fizik-kimyoviy, mikrobiologik va zamonaviy tahlil usullari hamda olingan natijalarga statistik ishlov berish dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi marotaba mahalliy soya dukkagidan sut olishda noana'naviy usul – ultratovush ta'siridan foydalanish samarali ekanligi aniqlangan;

soya dukkagidan sut olishda ultratovush ta'siridan foydalanish orqali soya dukkagini ivitish jarayonining intensivligini 5 marotaba oshirishi isbotlangan;

ilk marta mahalliy soya suti va pereeterifikatsiyalangan yog'lar asosida veganlar uchun mo'ljallangan sutli margarin retsepturasi ishlab chiqilgan;

soya sutining margarin emulsiyasining turg'unligi va fizik-kimyoviy xususiyatlariga barqaror ta'siri asoslangan;

margarin retseptiga sigir suti o'rniga soya sutini kiritish orqali iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan margarinlar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy soya dukkagidan margarin retseptida qo'llash mumkin bo'lgan sifatli sut olishning intensiv usuli ishlab chiqilgan va maqbul sharoitlari aniqlangan;

mahalliy soya dukkagidan olingan sutdan samarali foydalanib, sutli margarin retsepti shakllantirilgan;

soya suti qo'shilgan margarin retsepturasi asosida organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan sutli margarin olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqarishga joriy etishda olinadigan texnik-iqtisodiy samaradorlik aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida mahalliy soya dukkagidan olingan sut qo'shib tayyorlangan margarinlarning fizik-kimyoviy tahlili gaz xromatografiyasi va boshqa fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullarini qo'llagan holda, laboratoriya va tajribaviy-ishlab chiqarish sharoitlarida

aprobatsiyasidan o'tkazish natijalariga ko'ra nazariy va tajriba ma'lumotlarining mos kelishi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy soya dukkagidan olingan sutni margarin retseptiga sigir suti va suv o'rniga kiritish orqali uning tannarxini kamaytirishga erishilib, sutli margarinidagi oqsil miqdorini to'rt barobarga oshirilishi, tarkibida laktoza bo'lmagan margarin retseptini takomillashtirilishi va sifatini oshirilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy soya dukkagidan intensiv usulda olingan sutni margarin retseptiga kiritish orqali veganlar uchun mo'ljallangan margarin olinganligi, Shuningdek, ishlab chiqarishning rentabelligini ultratovush ta'siridan foydalanib soya suti olish jarayonining intensivligini besh barobarga oshirish orqali ko'tarish va mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beruvchi sutli margarinlarning retseptini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soya dukkagini samarali qayta ishlab olingan yuqori sifatli soya sutini yog'li emulsiya mahsulotlarida qo'llash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

soya dukkagidan intensiv usulda soya suti olish texnologiyasi "MILKO-S" MCHJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yog'-moy sanoati korxonalari uyushmasining 2024 yil 24 yanvardagi KS/Z-20-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sut olishdagi soya donini ivitish jarayonining davomiyligi 7 soatdan 80 minutgacha ya'ni 5 barobarga kamaygan. Bu esa ultratovushli usulda yuqori sifatli soya suti olish imkonini bergan;

intensiv usulda olingan soya suti asosida ishlab chiqilgan margarin retsepti «Chirchiq Grand Savdo» MCHJ korxonasi amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yog'-moy sanoati korxonalari uyushmasining 2024 yil 24 yanvardagi KS/Z-20-son ma'lumotnomasi). Natijada fizik-kimyoviy va organoleptik ko'rsatkichlari hamda saqlash muddati yaxshilangan sutli margarin olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya ishining hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilib, uning ob'ekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, ishlab chiqarishga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning « **Soya dukkagi va undan olingan sutni oziq-ovqat sanoatida qo'llashning muammolari va istiqbollari**» deb nomlangan birinchi bobida, yog'lar va o'simlik moylarining turlari, ularning fizik-kimyoviy tarkibi, inson salomatligiga biologik samarasi, foydali xususiyatlari, tarkibidagi mavjud vitaminlar, makro- va mikro elementlar, to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari to'g'risida ma'lumotlar hamda margarin mahsulotlari assortimentlarini kengaytirish maqsadida an'anaviy xom ashyolar bilan bir qatorda noan'anaviy xom ashyolar asosida, yangi turdagi margarin mahsulotlari tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan tadqiqot ishlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. O'rganilgan adabiyotlar sharhlari asosida soya dukkagidan sut olish texnologiyasi, soya sutining foydali xususiyatlari, margarin mahsulotlari tayyorlashning samarali texnologiyalari, xususiyatlari va kamchiliklarini o'rgangan holda tadqiqot vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Soya suti qo'shilgan margarin olish texnikasi, mahsulot va xom ashyolarni tahlili qilish usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida soya dukkagi, soya suti va soya suti qo'shib tayyorlangan margarinlarning fizik-kimyoviy tarkibi, yog' kislota soni, yod soni, rangi, ular tarkibidagi namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushini aniqlash usullari bayon etilgan. Qo'llaniladigan uskunalari - GT SONIC-D3 markali ultratovushli suv hammomi, Lovibond rang o'lchash asbobi, "Xromatek-Proton 20M" YaMR analizatori, Sokslet apparati va Agilent Technologies 6890 N rusumli gaz-suyuqlik xromatograflari tavsiflangan. Soya sutini olish va margarin tayyorlash jarayonlarida qo'llaniladigan laboratoriya qurilmalari, ularda tajribalar o'tkazish uslubiyoti va olingan natijalarni qayta ishlash metodikasi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Olingan natijalardagi xatoliklar regressiya tenglamalarida hisoblanib, jarayonning optimal sharoitlari aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**Mahalliy soya dukkagidan sut olish va uni margarin retseptida qo'llash jarayonlarini tadqiq qilish**» deb nomlangan uchinchi bobida soya dukkagining tarkibiy qismlarini o'rganish natijalari keltirilgan (1-jadval). 1-jadvaldan ko'rinadiki, mahalliy soya doni tarkibida oqsilning massa ulushi 36,08 %, uglevodlarning massa ulushi 31,33 % hamda yog'ning massa ulushi 17,03 % ni tashkil etgan.

1-jadval**Soya dukkaklarining sifat ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar nomi, o'lchov birliklari	Sinov natijalarining o'rtacha qiymatlari
Yog'ning massa ulushi, %	17,03
Oqsilning massa ulushi, %	36,08
Namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushi, %	10,1
Uglevodlarning massa ulushi, %	31,33
Kulning massa ulushi, %	5,46
Vitamin B ₁ mg	0,90
Vitamin B ₂ mg	0,21
Vitamin B ₄ mkg	260
Vitamin B ₅ mg	1,70
Vitamin B ₆ mg	0,81
Vitamin B ₉ mkg	196


2-jadval**Soya dukkagidan ana'naviy usulda olingan sutning tarkibi**

Komponentlar nomi, %	Miqdori, %					
	Suv va soya dukkagi massasining o'zaro nisbatlari					
	10:1	8:1	5:1	3:1	2:1	1:1
Suv	92,58	90,3	88,48	88,7	89,1	89,4
Oqsil	3,08	4,91	6,08	6,0	5,91	5,76
Uglevodlar	2,10	2,30	2,50	2,50	2,30	2,30
Yog'lar	1,96	2,14	2,26	2,16	2,11	2,0
Kul	0,28	0,35	0,68	0,64	0,58	0,54

An'anaviy usulda mahalliy soya dukkagidan sut olish jarayoni hamda va olingan sutning kimyoviy tarkibi tadqiq qilingan (2-jadval).


2-jadvaldan ko'rinadiki, soya sutining kimyoviy tarkibi sigir sutinikiga yaqin. An'anaviy usulda olingan soya suti tarkibida oqsil miqdori 3,08%, uglevod miqdori 2,10%, yog' miqdori 1,96% ni hamda kul miqdori 0,28 % ni tashkil etgan.

Olingan soya sutning konsentratsiyasi past bo'lganligi uchun soya donidan oqsilni ekstraktsiyalash jarayonlarining optimal gidromudili aniqlandi. Bunda soya dukkagi va suv massasining o'zaro nisbatlari 1:1 dan 1:10 gacha olindi (1-rasm). Olingan ma'lumotlardan ko'rinadiki, suv va soya donining o'zaro nisbatlari 1:1 dan 1:10 gacha o'zgarganda oqsilning ekstraktsiyalanish darajasi ortib boradi, ya'ni dondagi oqsilning eritmaga o'tishi ortib, okarada qolishi kamayadi. Donni ivitish va ekstraktsiyalash jarayonlariga qo'shiladigan suvning miqdori, ya'ni gidromodul 5:1 nisbatgacha ortganda sut tarkibidagi namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushi 89,4% dan 87,5% gacha kamaygan, gidromodul 5:1 dan 10:1 nisbatgacha ortganda esa 88,3% dan 92,8% gacha oshgan.



1-rasm. Soya doni va suvning o'zaro nisbatlarining olinadigan sutning konsentratsiyasiga ta'siri

Soya donini ivitish jarayoniga haroratni ta'siri o'rganildi. Tajribalar 20-60°C haroratlarda soya donini 150% suv yutgunga qadar davom ettirildi. Olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Ultratovush ta'sirida soya donini ivitish davomiyligini olinadigan soya sutining kimyoviy tarkibiga ta'siri


Tajribalarda GT SONIC-D3 markali ultratovushli suv hammomidan foydalanilgan. Olingan soya sutining kimyoviy tarkibi 3-javdaldagi keltirilgan.

3-jadval

Optimal sharoitlarda soya dukkagidan ana'naviy va taklif etilgan usullarda olingan sutlarning tarkibi

Komponentlar, %	Miqdori, %	
	ana'naviy usulda	taklif etilayotgan usulda
Suv	88,48	86,75
Oqsil	6,08	6,65
Uglevodlar	2,10	2,88
Yog'lar	2,36	2,69
Kul	0,98	1,03

2-rasm. Donni ivitish davomiyligiga jarayon haroratining ta'siri



2-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki donni ivitish jarayonida suvning eng ko'p yutilishi harorat 50°C bo'lganda kuzatilgan. Shu sababli keyingi tajribalarda donni ivitish jarayoni 50°C haroratda olib borildi.



Soya donini suv bilan ivitish jarayonini jadallashtirish va davomiylikni kamaytirish uchun ultratovush ta'sirini qo'llash bo'yicha tajribalar olib borildi. Bunda yuqorida erishilgan natijalardan foydalanib, jarayon haroratini 50°C va suv miqdorini 5:1 nisbatda olindi.

3-jadvaldan ko'rinadiki, soya sutining kimyoviy tarkibi uni ivitish va sut olish usuliga bog'liq bo'ladi. Jumladan, an'anaviy usulda olingan sutda oqsil 6,08 %, uglevod 2,10 %, yog' miqdori 2,36 va kul miqdori 0,98 ni tashkil etsa, ultratovush bilan ishlov berish usulida olinganda oqsil 6,65% , uglevod 2,88%, yog' 2,69% hamda kul miqdori 1,03% ni tashkil etgan.

Ultratovush ta'sirida soya dukkagini ivitish jarayonining davomiyligini olinadigan soya sutining kimyoviy tarkibiga ta'siri o'rganilgan (3-rasm). Olingan ma'lumotlardan ko'rinadiki, ultratovush bilan ishlov berish vaqti oshgan sari olinadigan sut tarkibidagi moddalarning miqdori ham ortib boradi. Ishlov berish vaqti 80 minutgacha davom etganda oqsil miqdori 6,53% gacha, uglevod miqdori 2,70% gacha, yog' miqdori 2,35% gacha va kul miqdori 0,98% gacha ortib borgan. Ishlov berish vaqtining keyingi ortishi olinadigan sutning kimyoviy tarkibini o'zgarishiga sezilarli ta'sir etmagan.

Demak, soya dukkagini ultratovush ta'siri ostida 80 minut davomida ivitish undan yetarli darajada sut olish imkonini beradi.

Ultratovush chastotasining soya donini ivitish jarayoniga ta'siri o'rganildi (4-rasm). Olingan ma'lumotlardan ko'rinadiki, ultratovush chastotasi oshgan sari suvning donga sorbtsiyalanish hajmi ortib, ivitish davomiyligi kamayadi. Ultratovush chastotasi 10 Khz bo'lganda suvning sorbtsiyalanish darajasi 130% bo'lib, jarayon davomiyligi 3,5 soatni tashkil etgan. Ultratovush chastotasi 50 Khz gacha ortganda suvning sorbtsiyalanish darajasi 150% gacha ortib, jarayon davomiyligi 1,3 soatgacha kamaygan. Ultratovush chastotasining keyingi ortib borishi suvning sorbtsiyalash darajasiga va jarayon davomiyligiga jiddiy ta'sir etmagan.




4-rasm. Ultratovush ta'sirida soya dukkagini ivitish jarayonida ultratovush chastotasining ta'siri

5-rasm. Soya dukkagini maydalash davomiyligining olinadigan sutdagi zarrachalar o'lchami va oqsilning massa ulushiga ta'siri

Ivutilgan soya donini maydalash davomiyligining olinadigan sutdagi zarrachalar o'lchami va oqsilning massa ulushiga ta'siri o'rganildi. Buning uchun ultratovush yordamida 2:1 nisbatdagi soya doni va suv aralashmasi ivitilib, 3:1 nisbatdagi suv bilan aralashtirildi va blenderda 1-10 minut davomida maydalandi. Har bir tajribada olingan sut tarkibidagi zarrachalar o'lchami va oqsilning massa ulushi aniqlandi (5-rasm). Olingan ma'lumotlardan ko'rinadiki, ivutilgan soya donini maydalash davomiyligi olinadigan sutdagi oqsilning massa ulushi va

zarrachalar o'lchamiga jiddiy ta'sir etadi. Maydalash davomiyligi 1 minutdan 6 minutgacha ortganda zarrachalar o'lchamining 360 mkm dan 175 mkm gacha kamayishi va sutdagi oqsilning massa ulushini 3,2% dan 6,52% gacha ortganligi kuzatildi. Maydalash davomiyligini 6 minutdan ortishi zarrachalar o'lchamining kamayishi va oqsilning massa ulushini ortishiga sezilarli ta'sir etmagan.



6-rasm. Ultratovushli ishlov berish usuli bilan soya donini ivitish vaqtining olingan soya sutining organoleptik ko'rsatkichlariga ta'siri.

Ultratovushli ishlov berish usuli bilan soya dukkagini ivitib olingan soya sutining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Soya sutining kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi, o'lchov birliklari	Sinov natijalar
Yog'ning massa ulushi, %	2,5
Oqsilning massa ulushi, %	6,52
Kislotalik, °T,	18,6
QYoSQ, %,	9,7
Uglevodning massa ulushi, %	2,83
Kulning massa ulushi, %	1,01
Vitamin B ₁ mg	0.1
Vitamin B ₂ mg	0,2
Vitamin B ₆ mg	0,2
Vitamin B ₉ mkg	32,0

4-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, soya sutining kimyoviy tarkibi sigir sutiga juda yaqin. Xususan, soya sutidagi oqsil miqdori 6,52%, uglevod miqdori 2,83%, yog' miqdori 2,5%, kul miqdori 1,01% ga teng bo'ldi. Soya suti sigir sutidan oqsil miqdorining ko'pligi va uglevodlar miqdorining kamligi bilan sezilarli darajada farq qiladi (5-jadval).

Soya va sigir sutlarining tarkibiy qismlari

Komponentlar nomi	Miqdori, %	
	Soya suti	Sigir suti
Suv	87,14	87,51
Oqsil	6,52	2,93
Uglevodlar	2,83	5,69
Yog'	2,50	3,13
Kul	1,01	0,74

5-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, oqsil miqdori soya sutida 6,52%, sigir sutida esa 2,93% ni tashkil qiladi. Uglevod miqdori 2,83% va 5,69 %, yog' miqdori 2,5% va 3,13%, kul miqdori esa mos ravishda 1,01% va 0,74% ni tashkil qiladi. Sigir suti soya sutidan uglevod miqdorining ko'pligi bilan jiddiy farq qiladi.

Ma'lumki, margarin sariyog' o'rnini bosuvchi mahsulot hisoblanadi. Margarinni sariyog'ga o'xshashligini oshirish uchun unga sut qo'shiladi. Sut margaringa yoqimli ta'm va hid beradi, uning oziqaviy qiymatini oshiradi. Sutli margarin tarkibidagi sut va suv o'rniga soya sutini kiritish orqali oqsilga boyitilgan hamda veganlar uchun mo'ljallangan margarin retseptini shakllantirish maqsadida tajribalar olib borildi. Tajribalarda soya, paxta va palma moylari aralashmasidan olingan pereeterifikatsiyalangan yog', sariyog' va uning o'rinbosarlaridan foydalanildi.

Soya suti tarkibidagi qimmatli oziqaviy moddalarni margarin tarkibiga kiritish orqali uning oziqaviylik qiymatini oshirish maqsadida retsept tuzildi va retsept asosida margarinlar tayyorlandi. 6-jadvalda keltirilgan yog'li xomashyolar asosida margarin retsepturalari shakllantirildi.

Sutli margarin retseptida qo'llanilgan yog' va moylarning sifat ko'rsatkichlari

Yog' va moy turi	Yod soni, % J ₂	Namlik va uchuvchan moddalar miqdori, %	Kislota soni, mg KON	Erish harorati, °C	Qattiqligi, g/cm
Sariyog'	46,3-48,7	0,15-0,20	0,21-0,23	32-33	140-142
Pereeterifikatsiyalangan yog'	75,8-78,2	0,16-0,25	0,61-0,78	33,2-36,1	166-174
Sut yog'i o'rinbosari	65,2-68,7	0,28-0,30	0,21-0,24	34-35	130-135

Bunda suvli fazasi har xil bo'lgan 2 ta retsept tuzildi, ya'ni birinchi retseptda distillangan suv va pasterizatsiyalangan sigir suti qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchisida distillangan suv va pasterizatsiyalangan soya suti qo'shildi. Tuzilgan retseptlar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Soya va sigir sutlaridan foydalanib tayyorlangan margarin retseptlari

Margarin komponentlari, %	Retseptlar	
	an'anaviy	Soya suti qo'shilgan
Sariyog'	5,0	5,0
Pereeterifikatsiyalangan yog'	55,0	55,0
Sut (sigir suti)	10,0	0,0
Bo'yoq	0,1	0,1
Emulgator	0,7	0,7
Aromatizator	0,1	0,1
Konservant (kaliy sorbat)	0,1	0,1
Osh tuzi	0,4	0,4
Antioksidant	0,05	0,05
Qand	0,4	0,4
Suv	28,15	28,15
Soya suti	0,0	10,0
Jami	100	100

7-jadval keltirilgan margarin retseptlari asosida tayyorlangan komponentlar aralashtirilib, margarin emulsiyalari olindi, emulsiyalar sovutildi va tovar shakliga keltirildi. Ishlab chiqarilgan margarinlar tahlil qilindi va sifat ko'rsatkichlari (8-jadval) hamda kimyoviy ko'rsatkichlari (9 jadval) o'zaro taqqoslandi

8 va 9 jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, olingan margarinlar barcha ko'rsatkichlari bo'yicha O'zDSt 3317-2018 talablariga mos keladi.

8-jadval

Soya va sigir sutlaridan foydalanib tayyorlangan margarinlarning qiyosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	Margarinlar	
	an'anaviy	soya suti qo'shilgan
Rangi	Butun massasi bo'yicha bir xil tarkibli och sariq rang	
Konsistentsiyasi	Plastik, zich, bir jinsli, kesim yuzasi yaltiroq	
Margarindan ajratib olingan yog'ning erish harorati, °C	34,1	34,3
Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi,%	38,94	38,67
Tuzning massaviy ulushi, %	0,4	0,4
Kislotaliligi, °K (Kettosorfera) bo'yicha	2,4	2,2
Yog'ning massaviy ulushi,%	60,31	60,25

9-jadval

Olingan margarinlarning kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich nomi	Sutli margarinlar	
	Sigir suti qo'shilgan	Soya suti qo'shilgan
Umumiy yog' miqdori, g	60,31	60,25
Oqsil miqdori, g	0,29	0,65
Uglevodlar miqdori, g	0,46	0,43
Namlik va uchuvchan moddalar miqdori,%	38,94	38,67
Kislotaliligi °K	2,4	2,2
Perekis soni, mmol O/kg	4,82	4,81

Odatda, o'simlik sutlari veganlar tomonidan sevib iste'mol qilinadi. Margarin o'simlik moylari asosida tayyorlanganligi sababli u veganlar uchun sariyog'ga potentsial muqobil sanaladi. Sutli margarin tarkibidagi sigir sutini soya suti bilan va sariyog'ni uning o'rinbosari bilan almashtirish orqali veganlar uchun mo'ljallangan margarin retsepti shakllantirildi. Bunda suvli fazasi har xil bo'lgan 3 ta retsept tuzildi, ya'ni birinchisi distillangan suv va pasterizatsiyalangan sigir suti qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchisida pasterizatsiyalangan soya suti qo'shildi. Tuzilgan retseptlar 10-jadvalda keltirilgan.

10-jadvaldan ko'rinib turibdiki, har uchchala retseptlarda barcha komponentlarning turi va miqdori bir xil bo'lib, faqat veganlar uchun taklif etilyotgan retseptlarda sigir suti, sariyog' va suv qo'llanilmagan.

Taklif etilyotgan retseptlar asosida soya suti qo'shilgan margarinlar tayyorlandi. Bunda suvli fazani tayyorlash jarayonida suv va sigir suti o'rniga soya suti hamda sariyog' o'rniga sut yog'i o'rinbosari qo'llanildi. Ishlab chiqarilgan margarinlar tahlil qilinib, sifat ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi (11-jadval).

11-jadvaldan ko'rinadiki, tahlil qilingan barcha margarinlar sifat ko'rsatkichlari bo'yicha O'zDST 3317-2018 talablariga mos keladi.

10-jadval

Soya va sigir sutlaridan foydalanib tayyorlangan margarin retseptlari

Margarin komponentlari, %	Retseptlar		
	Sigir suti	Soya suti-1	Soya suti-2
Sariyog'	5,0	5,0	0,0
Pereeterifikatsiyalangan yog'	55,0	55,0	55,0
Sut yog'i o'rinbosari	0,0	0,0	5,0
Sut (sigir suti)	10,0	0,0	0,0
Bo'yoq	0,1	0,1	0,1
Emulgator	0,7	0,7	0,7
Aromatizator	0,1	0,1	0,1
Konservant (kaliy sorbat)	0,1	0,1	0,1
Osh tuzi	0,4	0,4	0,4
Antioksidant	0,05	0,05	0,05
Shakar	0,4	0,4	0,5
Suv	28,15	28,15	0
Soya suti	0	10,0	38,05
Jami	100	100	100

11-jadval


Soya suti yordamida tayyorlangan margarinlarning sifat ko'rsatkichlari va kimyoviy xususiyatlari

Ko'rsatkichlar nomi, o'lchov birliklari	Tahlil natijalari	
	Tarkibida 10% soya suti mavjud	Tarkibida 38,05% soya suti mavjud
Tashqi ko'rinish va mustahkamlik haroratda (20±2)°C	Konsistensiya plastik, zich, bir hil, yuzasi biroz yaltiroq, quruq ko'rinishga ega	
Ta'm va hid	Sof, kiritilgan oziq-ovqat ta'mi va aromatik qo'shimchalarning ta'mi va hidi bilan	
Rang	Ochiq sariq, butun massa bo'ylab bir xil	
Yog'ning massa ulushi, %, kam emas	62,43	64,25
Margarindan ajratilgan yog'ning erish harorati, °C	34,1	34,3

11-jadvalning davomi

Margarinning kislotaligi, °K, ortiq emas	2,2	2,4
Peroksid qiymati, %, ortiq emas	2,8	2,7
Namlikning massa ulushi, %, kam emas	36,85	33,16
Oqsilning massa ulushi, %, ortiq emas	0,65	2,48
Uglevodning massa ulushi, %	0,68	1,48
Kulning massa ulushi, %	0,2	0,47
Vitamin B ₁ mg	0,01	0,038
Vitamin B ₂ mg	0,022	0,076
Vitamin B ₆ mg	0,023	0,076
Vitamin B ₄ mkg	0,277	1,06
Vitamin B ₉ mkg	3,2	12,2

Ishlab chiqilgan yangi turdagi margarin retsepti asosida olingan emulsiyani sovutish jarayonining optimal sharoitlari (sovutish harorati va aralashtirish tezligi) o'rganildi. Bunda sovutish harorati 10-22°C va valning aylanish tezligi 200-300 ayl/min oralig'ida olib borildi (7-rasm).



7-rasm. Margarín konsistentsiyasiga margarin emulsiyasini sovutish jarayoni rejimlarini ta'siri.

7-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, olinadigan margarinning konsistentsiyasiga margarin emulsiyasini sovutish jarayonining rejimlari sezilarli ta'sir etadi.

Ishlab chiqilgan yangi turdagi margarin retsepti asosida olingan emulsiyani sovutish jarayonining optimal sharoitlarini sovutish qurilmadan chiqayotgan margarinning harorati 16°C va valning aylanish tezligi 250 ayl/min bo'lganda kuzatish mumkin.

12-jadval


Saqlash jarayonida sut qo'shilgan margarinlarning mikrobiologik ko'rsatkichlarini o'zgarishi

Mikrobiologik ko'rsatkichlar	Umumiy texnik reglamentda belgilangan me'yor	Margarinlar		
		Sigir sutli	Soya sutli-1	Soya sutli-2
Ichak tayoqchalari guruxiga kiruvchi bakteriyalar (koliformalar),	0.01	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas
Patogen mikroorganizm (salmonella),	25	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas
Achitqilar, KXQB/g ko'p emas	5*10 ²	1*10 dan kam	1*10 dan kam	1*10 dan kam
Zamburug'lar, KXQB/g ko'p emas	50	1*10 dan kam	1*10 dan kam	1*10 dan kam

Keyingi tajribalarda soya suti qoʻshilgan margarinning mikrobiologik koʻrsatkichlari tahlil qilindi. Mikrobiologik tahlil “Yogʻ-moy mahsulotlarining xavfsizligi toʻgʻrisi”dagi umumiy texnik reglamentga mos ravishda olib borildi hamda mezofil aerob va fakultativ-anaerob mikroorganizmlar (MAFAnMM) miqdori, ichak tayoqchalari guruxiga kiruvchi bakteriyalar (koliformalar), patogen mikroorganizmlar (jumladan, salmonellalar), achitqilar va zamburugʻlarning mavjudligi tekshirildi (12-jadval).

Keltirilgan maʼlumotlardan koʻrinadiki, ichak tayoqchalari guruhiga kiruvchi bakteriyalar (koliformalar), patogen mikroorganizmlar (salmonellalar) kabi mikroorganizmlar saqlash davrida barcha margarin turlarida umuman kuzatilmadi. Mogʻor zamburugʻlar va achitqilar miqdori esa texnik reglamentda belgilangan miqdordan oshmaganligi aniqlandi.

«Mahalliy soya dukkagidan olingan sutni qoʻllab sutli margarin olish texnologiyasini takomillashtirish» deb nomlangan toʻrtinchi bobida mahalliy soya dukkagidan intensiv usulda sut olish, olingan sutni qoʻllab shakllantirilgan retseptlar asosida margarin emulsiyasini tayyorlash va unga mexanik ishlov berish jarayonlarini olib borish uchun texnologik sxema takomillashtirildi.



8-rasm. Intensiv usulda soya suti tayyorlash liniyasi.

1-elakli don yuvish jihozi, 2-distilyator, 3-ultratovushli suv xammomi, 4-donni maydalash qurilmasi 5,7,9-nasoslar, 6-sigʻim, 8-filtrpress, 10-gomogenizator, 11-pasterizator.

Taklif etilayotgan texnologiyada ham anaʼnaviy usulda soya suti olish texnologiyasi ketma-ketligi bir xil tartibda olib boriladi. Faqat bunda soya dukkagini ivitish davomiyligini qisqartirish maqsadida ultratovushli suv hammomidan foydalaniladi. Soya suti olishning intensiv usuli “MILKO-S” MCHJ korxonasida sanoat sinovlaridan oʻtkazilgan. Olingan natijalar 13-jadvalda keltirilgan.

Soya dukkagidan olingan sutlarning tarkibi

Komponentlar, %	Miqdori, %	
	ana'naviy usulda	taklif etilayotgan usulda
Suv	88,45	86,93
Oqsil	6,11	6,48
Uglevodlar	2,12	2,75
Yog'lar	2,28	2,83
Kul	1,04	1,01

12-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, sanoat sharoitlarida ultratovush bilan ishlov berish usulida soya suti olinganda uning tarkibidagi oqsil miqdori an'anaviy usulda olingan sutga nisbatan yuqori, uglevod, yog' va kul miqdori esa past bo'ladi.

Soya suti qo'shilgan margarin retseptlari «Chirchiq Grand Savdo» MCHJ korxonasiining margarin tsexida sanoat sinovlaridan o'tkazilgan (14-jadval).

14-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, tahlil qilingan barcha margarinlar sifat ko'rsatkichlari bo'yicha O'zDSt 3317-2018 talablariga mos keladi. Soya suti qo'shilgan retsept asosida olingan margarinlarning konsistentsiyasi eng yuqori baholandi.

Sigir suti, sariyog' va suv o'rniga soya suti hamda sut yog'i o'ribosarini qo'llab tayyorlangan margarin retseptini ishlab chiqarishga joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 5,153 mln so'm/t ni tashkil etishi aniqlandi.

Sanoat sinov tajribalarida ishlab chiqarilgan margarinlarning qiyosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	Nazorat partiyalarida olingan margarinlar		
	1-partiya	2-partiya	3-partiya
Rangi	Butun massasi bo'yicha bir xil tarkibli och sariq rang		
Ta'mi va hidi	Sariyog' ta'mli, begona hidlarsiz sariyog' hidiga xos		
Konsistentsiyasi	Plastik, zich, bir jinsli, kesim yuzasi yaltiroq	Plastik, zich, bir jinsli, kesim yuzasi bir oz xira	Plastik, bir jinsli, kesim yuzasi xira
Kislotaliligi, °K (Kettosorfera) bo'yicha	2,2	2,2	2,4
Emulsiya barqarorligi, %	96,7	94,9	92,1

14-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, tahlil qilingan barcha margarinlar sifat ko'rsatkichlari bo'yicha O'zDSt 3317-2018 talablariga mos keladi. Soya suti qo'shilgan retsept asosida olingan margarinlarning konsistentsiyasi eng yuqori baholandi.

Sigir suti, sariyog' va suv o'rniga soya suti hamda sut yog'i o'ribosarini qo'llab tayyorlangan margarin retseptini ishlab chiqarishga joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 5,153 mln so'm/t ni tashkil etishi aniqlandi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Soya dukkagining “Slaviya”, “Vilana” nomli xorijiy navlari va “To’maris”, “Hosildor” nomli mahalliy navlarining kimyoviy tarkibi o’rganildi va qiyosiy tahlil qilindi. Mahalliy soya dukkaklari tarkibida oqsil miqdorining nisbatan kamligi aniqlandi.

2. Ana’naviy usulda va ultratovush ta’sirida soya donlarini ivitish jarayonlari tadqiq qilindi. Ultratovushdan foydalanish ivitish jarayonining davomiyligini 7 soatdan 1,2 soatgacha kamaytirishi aniqlandi. Intensiv usulda ivitishning texnologik rejimlari ishlab chiqildi. Bunda ultratovush chastotasi 40 Khz, gidromodul 5:1, harorat 50 °C va jarayon davomiyligi 80 minutni tashkil etdi.

3. Ivitilgan soya donidan aralashtirib maydalash (blender) usulida sut olishning texnologik rejimlari aniqlandi. Bunda maydalash davomiyligi 5 minutni tashkil etishi va sutdagi zarachalarning o’lchami 180 mkmdan kichik bo’lishi kuzatildi.

4. Soya va sigir sutlarining kimyoviy tarkibi qiyosiy tahlil qilindi. Soya sutida oqsil va mineral moddalarning ko’p bo’lishi, aksincha uglevod va yog’ miqdorining kam bo’lishi aniqlandi.

5. Sutli margarin retseptidagi sigir suti o’rniga soya sutini kiritish hamda sariyog’ o’rniga sut yog’i o’rinbosari va suv o’rniga soya sutini kiritish orqali margarin retseptlari takomillashtirildi. Natijada veganlar uchun mo’ljallangan margarin retsepti ishlab chiqildi.

6. Ishlab chiqilgan retseptlar asosida «Chirchiq Grand Savdo» MCHJ korxonasiining margarin ishlab chiqarish sexida sanoat sinovlari olib borildi. Jarayonning optimal texnologik rejimlari aniqlandi.

7. Sutli margarin olish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi aniqlandi. Taklif etilayotgan retsept bo’yicha margarin ishlab chiqarilganda sigir suti va suv uchun sarf xarajatlarni tejash hisobidan 1 t mahsulotdan 5,15 mln so’m iqtisodiy samaradorlikka erishilishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD. 03/31.03.2023.Т.66.05 ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

РАХИМОВА ГУЛМИРА ХАМИДУЛЛАЕВНА

**РАЗРАБОТКА РЕЦЕПТУРЫ МОЛОЧНОГО МАРГАРИНА С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕСТНОГО СОЕВОГО МОЛОКА**

**02.00.17 - Технология и биотехнология обработки, хранения
и переработки сельскохозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/T2796.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу www.nammti.uz и информационно-образовательном портале «Ziyounet» www.ziyounet.uz.

Научный руководитель:

Рузибоев Акбарали Турсунбаевич
кандидат технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Сагдуллаева Дилафруз Саидакбаровна
доктор технических наук, профессор

Абдурахимов Ахрор Анварович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Ферганский политехнический институт

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 г. В «__» часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2023.T.66.05 при Наманганском инженерно-технологическом институте (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансай, 7. Тел.: (69) 225-10-07, факс: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Наманганский инженерно-технологический институт, 3-здание, 1-этаж, ауд. 303).

Диссертация зарегистрирована в информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института за № ____, с которым можно ознакомиться в ИРЦ. Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел.: (69) 225-10-07, факс: (69) 228-76-75.

Автореферат диссертация разослан «__» _____ 2024 года.
(реестр протокола рассылки № ____ от «__» _____ 2024 года)



А.А.Худайбердиев
Председатель Научного совета по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор

О.Т.Маллабаев
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёной степени, д.ф.х.н, доцент

А.М.Хурмамов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Создание в мире новых видов продукции и технологий, обеспечение населения качественными продуктами питания остается одной из актуальных проблем этой отрасли. В этой связи особое значение приобретают развитие пищевой промышленности, расширение ассортимента новых видов продукции, использование более эффективных методов производства продукции, создание энерго- и ресурсосберегающих технологий. Даже в развитых странах в результате роста населения становится очевидным дефицит продуктов питания. По этой причине проводятся масштабные исследования по производству новых видов пищевых продуктов, в том числе растительного молока, путем глубокой переработки нетрадиционного сырья. Особенно важно совершенствовать технологии производства и переработки соевого молока, создать новые технологии разработки молочных маргаринов с использованием их в качестве заменителей продуктов животного происхождения, в частности, коровьего молока.

В мире проводятся комплексные исследования по созданию продуктов на основе новых технологий и качественных продуктов питания для удовлетворения спроса. Особое внимание уделено повышению пищевой ценности маргарина, совершенствованию его рецептуры, улучшению технологий холодной обработки маргариновой эмульсии, извлечения молока из соевых бобов и применения его в пищевых продуктах.

В нашей республике одним из важных задач является полное обеспечение населения качественными и дешевыми продуктами питания, устранение факторов, припятствующих безопасности пищевых продуктов. В стратегии развития нового Узбекистана определены важные задачи «...углубление структурных преобразований и последовательное развитие мощностей по переработке сельскохозяйственной продукции, дальнейшее укрепление продовольственной безопасности страны, расширение производства экологически чистой, качественной продукции, существенное увеличение экспортный потенциал аграрного сектора...»¹. В связи с этим большое значение имеют научные исследования, направленные на разработку рецептур высококачественных жироземulsionных продуктов на основе нетрадиционного сырья, совершенствование технологий производства маргаринов с улучшенными органолептическими показателями.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана», №УП-4887 от 10 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по обеспечению здорового питания населения» от 9 сентября 2020 года № 4821 «О мерах по ускоренному развитию пищевой промышленности республики и полноценному обеспечению населения качественной продовольственной продукцией», № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства

Республики Узбекистан на 2020 - 2030 годы», № ПП-4118 от 16 января 2019 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию масложировой отрасли и внедрению рыночных механизмов управления отраслью» а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

